



The appearance of visual arts programs on the "Madaniyat va ma'rifat" and "O'zbekiston tarixi" television and radio channels of the TV and Radio Company of Uzbekistan

Barno USMANOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

Keywords:

TV and Radio Company of

Uzbekistan,

"Madaniyat va ma'rifat"

channel,

"O'zbekiston tarixi" channel,

broadcast,

visual arts,

journalist.

ABSTRACT

The role of television in solving processes and problems in the field of contemporary fine arts and introducing them into the consciousness of the audience is incomparable. The activities of television in Uzbekistan, the changes taking place in the field of television journalism, the content of television programs, the problems raised in them, today's audience demand, the relationship between television and viewers, issues of artistic mastery in broadcast programs have been studied by a number of journalists and researchers.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp383-385>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" va "O'zbekiston tarixi" telekanallaridagi tasviriy san'atga oid ko'rsatuvlar qiyofasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

O'zbekiston

teleradiokompaniyasi,

"Madaniyat va ma'rifat"

kanali "O'zbekiston tarixi"

kanali, ko'rsatuv,

tasviriy san'at,

jurnalist.

Zamonaviy tasviriy san'at sohasidagi jarayonlar va muammolarning yechimida va ularni auditoriya ongiga singdirishda televideniyaning o'zni beqiyos. O'zbekistonda televideniye faoliyati, telejurnalistika sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, teledasturlarning mazmun-mundariyasi, ularda ko'tarilayotgan muammolar, bugungi auditoriya talabi, televideniye va tomoshabin munosabatlari, efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarda badiiy mahorat masalalari bir qator jurnalistlar, tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

¹ PhD student, Faculty of Journalism, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

Облик программ по изобразительному искусству на телеканалах «Маданият ва маърифат» и «O'zbekiston tarixi» телерадиокомпаний Узбекистана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Телерадиокомпания
Узбекистана,
канал «Маданият ва
маърифат»,
канал «O'zbekiston tarixi»,
передача,
изобразительное
искусство,
журналист.

Роль телевидения в решении процессов и проблем в области современного изобразительного искусства и внедрении их в сознание аудитории несравнима. Деятельность телевидения в Узбекистане, изменения, происходящие в сфере тележурналистики, содержание телепрограмм, проблемы, поднимаемые в них, сегодняшний спрос аудитории, отношения между телевидением и зрителями, вопросы художественного мастерства в транслируемых передачах изучались рядом журналистов и исследователей.

Tasviriy san'atga oid ko'rsatuvlar muntazam ravishda O'zbekiston Teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" va "O'zbekiston tarixi" kanallarida efirga qo'yib boriladi. "Madaniyat va ma'rifat" telekanali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining raqamli telekanallari sonini oshirish, ulardan to'liq formatda foydalanish, sifatli boyitish va xizmat ko'rsatish to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Ushbu qaror bilan telekanal oldiga quyidagi aniq vazifalar qo'yildi:

Aholining madaniy va ma'rifiy darajasini oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda ilmiy kashfiyot va izlanishlar, madaniy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, O'zbekiston xalqining boy madaniy-ma'rifiy merosini asrab-avaylash va yanada boyitishga qaratilgan badiiy jihatdan yuksak saviyadagi ma'naviy, ilmiy-ommabop va madaniy-ma'rifiy teledasturlarni yaratish;

Translatsiyaning turli zamonaviy interfaol shakllari va usullari, raqamli va multimediyali texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalangan holda mamlakat aholisi hamda xorij jamoatchiligini O'zbekiston Respublikasining madaniy va ilmiy hayotida yuz berayotgan muhim voqealar to'g'risida har tomonlama xabardor qilish, yurtimiz musiqa, teatr va tasviriy san'atining eng sara namunalarinamoyish etish, milliy adabiyot va san'atimizning taniqli namoyondalari hayoti va ijodi to'g'risida teleko'rsatuvlar tayyorlash;

Mamlakat aholisini, eng avvalo, yoshlarni fan, madaniyat va san'at sohasida dunyo miqyosida erishilayotgan ilg'or yutuqlar bilan har tomonlama va xolisona tanishtirish, insoniyatning madaniy va intellektual merosini hamda yetakchi xorijiy o'quv, ilmiy va madaniy markazlarining faoliyatini ommalashtirish [1-158 b].

Ushbu vazifalardan kelib chiqib "Axborot-tahliliy dasturlar", "Madaniy-badiiy dasturlar", "Ma'naviy-tarbiyaviy dasturlar", "Ilmiy-ma'rifiy dasturlar", "Kino, videomahsulotlar va tezkor dublyaj" singari o'z maqsadi va yo'nalishiga ega beshta muharririyat tashkil qilindi [1-158 b].

Tasviriy san'atga oid ko'rsatuvni tayyorlashdan avval muallifga shunday talab qo'yiladi, ko'rsatuvda ko'tarilayotgan asar mazmunini to'la anglash, tushunish uchun, avvalo, rassom yashagan yurt, davr, qolaversa, uning shaxsiyatidan xabardor bo'lish kerak. Zero, har qanday

ijodkor asarini dastavval o'z ichki dunyosida, xayolot olamida yaratadi. "Madaniyat va ma'rifat" kanalida aynan tasviriy san'atga oid juda ko'plab ko'rsatuvlar efirga uzatilmoqda, bular: "Buyuk siymolar", "Tasviriy san'at ustalari", "Art sayohat" "5 O'lcham" kabi ko'rsatuvlar efirga uzatilib kelmoqda. Yuqoridagi ko'rsatuvlarning tayyorlashda mualliflik qilgan jurnalistlar faoliyatiga nazar tashlasak. Taniqli va iqtidorli jurnalist, 2016-yil – yilning eng yaxshi shoirasi "E'tirof" milliy mukofotiga loyiq topilgan, 2018-yili "Shuhrat" medaliga sazovor bo'lgan Zebo Mirzaeyeva "O'zbekiston" "Yoshlar" telekanallarida doimiy tasviriy san'atga oid ko'rsatuvlarning muallifidir. Tasviriy san'at ustalarini kartinalarini bu qadar mohirona tasvirlashiga jurnalistning yoshligidan rang tasvirga qiziqishi, maktab davridayoq ko'rik-tanlovlarda qatnashib ketma-ket g'oliblikni qo'lga kiritganligi bo'lgan. Zebo Mirzayeveaning she'r va rang olamidagi qiziqishlari keyinchalik "O'zbekiston" teleradiokanali, so'ngra "Madaniyat va ma'rifat" [2] telekanali orqali muntazam berib boriladigan "Rangin dunyo" hamda "Ijod sirlari" ko'rsatuvlarida yorqin namoyon bo'ldi. Rangtasvir va amaliy san'at ustalari, qo'li gul hunarmandlar haqidagi teran, falsafiy va mazmunli ko'rsatuvlari, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy ildizlari ila ochib berguvchi filmlari bilan nafaqat tomoshabinlar e'tiboriga, balki madaniyat va san'at sohasining yetuk mutaxassislari e'tiroflariga ham sazovor bo'ldi.

"5-O'lcham" ko'rsatuvining har bir sonida rassomlarning ijodiy asarlari san'atshunoslar tomonidan tahlil qilinadi. Asar yaratilgan davr, rassomning ichki kechinmalari va mahorat haqida fikr almashinadi. Ayniqsa, Pablo Pikaso asari "Gernika" kartinasi yaratilishi tarixi va uning jahon san'atidagi o'rni haqida to'liq ma'lumot beriladi. O'zbekiston xalq rassomlari Akmal Ikromjonov, Rustam Xudayberganovlarning asar haqida ta'rifi yanada ko'rsatuvning reytingini ko'tarishga hissa qo'shgan [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Radio va televideniye: O'quv-uslubiy qo'llanma // Alisher Xadjayev, Shuhrat Hayitov –T.: IJOD-PRESS, 2022.-560 b.
2. O'z Arxiv 2016-yil.
3. <https://rutube.ru/video/dd2f4b1f24c390a900de907f3fa00a6d/?r=wd>